

“O‘ZTEMIRYO‘LYO‘LOVCHI” AJ
Aksiyadorlarining yillik umumiy yig‘ilishi
BAYONNOMASI

2022-yil 30-iyun

soat 16-00

Toshkent shahri

Majlis raisi

M.K.Radjabov

Aksiyadorlarining yillik umumiy yig‘ilishi raisi
“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ vakili, ovoz beruvchi
aksiyalar soni – 100.756.632 dona, jamiyat ustav fondining
98,27%

J.T.Nurmuxamedov

“O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” AJ bosh direktori.

B.N.Nazarov

“Nazorat audit” MCHJ bosh direktori.

T.B.Narkuziyev

“O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” AJ Ichki audit boshlig‘i.

X.Z.Barkashbayev

“O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” AJ Taftish komissiyasi raisi.

U.M.Irismetova

“O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” AJ Kuzatuv kengashi a‘zosi.

SH.X.Abdurazzoqov

“O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” AJ Moliya bo‘limi boshlig‘i.

G‘.P.Tursunov

Aksiyadorlar bilan korporativ munosabatlar bo‘yicha
maslahatchi.

A.M.Mirsoatov

Aksiyadorlar bilan korporativ munosabatlar bo‘yicha
mutahassis.

Aksiyadorlar yillik umumiy yig‘ilish raisi va kotibini tasdiqlashdi,
shuningdek umumiy yig‘ilish raisi aksiyadorlarining yillik umumiy yig‘ilishi kun
tartibiga kiritilgan masalalarni tasdiqlashni taklif etdi:

KUN TARTIBI:

**1 Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishini o‘tkazish to‘g‘risidagi
reglamentini tasdiqlash.**

**2 “O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” AJ bosh direktorining 2021-yil uchun
jamiyat moliyaviy va xojalik faoliyati yakunlari natijalari va biznes-rejani
amalga oshirish to‘g‘risidagi hisobotini tasdiqlash.**

**3 Jamiyatning 2021-yil yakunlari bo‘yicha yillik buxgalteriya
balansini tasdiqlash.**

**4 Jamiyatning 2021-yil yakunlari bo‘yicha moliyaviy-iqtisodiy
faoliyatini tashqi audit xizmati tomonidan o‘tkazilgan auditorlik tekshiruvi
natijasi bo‘yicha bergan hulosasini tasdiqlash.**

**5 “O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” AJ ichki audit xizmatining 2021-yil
yakunlari bo‘yicha hisobotini tasdiqlash.**

**6 “O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” AJ taftish komissiyasining 2021-yil
yakunlari bo‘yicha hulosasini tasdiqlash.**

**7 “O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” AJ Kuzatuv kengashining 2021-yil
yakunlari bo‘yicha hisoboti.**

**8 “O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” AJning Kuzatuv kengashi, taftish va
sanoq komissiyalari tarkibiga berilgan nomzodlarni tasdiqlash.**

9 "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJning yangi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash.

10 "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJning bosh direktori bilan tuzilgan mehnat shartnomasini aksiyadorlarning keyingi yillik umumiy yig'ilishigacha uzaytirish to'g'risida.

11 Jamiyatning affillangan shaxslari bilan, joriy xo'jalik faoliyati davomida aksiyadorlarning keyingi yillik umumiy yig'ilishigacha bo'lgan davrda tuzilishi mumkin bo'lgan bitimlarni tasdiqlash.

12 "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJda 2021-yil yakunlari bo'yicha korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalari hulosasini ko'rib chiqish to'g'risida.

13 "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ balansida bo'lgan ta'mir talab 30 dona yo'lovchi vagonlarini o'rnatilgan tartibda auksionda sotish to'g'risida.

Kun tartibidagi birinchi masala bo'yicha jamiyatning aksiyadorlar bilan korporativ munosabatlar bo'yicha mutaxassisi A.M.Mirsoatov so'zga chiqdi:

Ishtirokchilarning kun tartibiga kiritilgan 13 ta masaladan iborat aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilish reglamenti bilan tanishtirdi va mazkur reglamentni tasdiqlashni taklif qildi.

Ovoz berildi:

"Rozi"- 100 757 277 ovoz

"Qarshi"- 0 ovoz

"Betaraf"- 0 ovoz

QAROR QILDILAR: Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilish reglamenti tasdiqlansin.

Kun tartibidagi ikkinchi masala bo'yicha jamiyat bosh direktori J.T.Nurmuxamedov ma'ruza qildi:

Jamiyatning 2021-yil moliyaviy va xo'jalik faoliyati yakunlari bo'yicha tekshiruv natijalari to'g'risidagi hulosasi bilan tanishtirdi:

"O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ 2002-yil 28-iyunda O'zbekiston Respublikasining Davlat mulk qo'mitasining "Uzjeldorpass" UKni "O'zbekiston temir yo'llari" AJ tasarrufidagi ochiq aksiyadorlik jamiyatiga o'zgartirish to'g'risida"gi 187k-PQ-son buyrug'i bilan tashkil etilgan. 2015-yil 24-apreldagi PF-4720-sonli farmonga asosan 2015-yilning iyun oyida "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJga o'zgartirilgan. Ustav fondi 51 263,978 mln.so'mni tashkil etadi. Aksiyaning nominal qiymati 500 so'm.

- 98,27 foiz – "O'zbekiston temir yo'llari" AJ ulushi, 50 378,316 mln.so'mlik 100 756 632 dona aksiyalar.

- 1,73 foiz – Mehnat jamoasining ulushi, 885 662 mln.so'mlik 2 056 258 dona aksiyalar.

"O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJning muhim vazifalaridan biri yo'lovchilarni tashish xavfsizligini ta'minlash, aholining transport xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini o'z vaqtida to'liq va sifatli qondirish va temir yo'l stansiyalari hamda yo'lovchi poyezdlari yo'nalishi bo'ylab yo'lovchilar uchun xizmat ko'rsatish sifatini rivojlantirishdir.

Hozirda jamiyatning tarkibiga quyidagi filiallar kiradi:

• Toshkent-Janubiy, Guliston, Xovost, Jizzax vokzallaridan iborat

- yo'lovchilar tashishni tashkil etish bo'yicha Toshkent filiali;
- «Toshkent-Markaziy vokzali» filiali;
 - Yo'lovchi vagonlarini reysga texnik, texnologik tayyorlash va ta'mirlash filiali;
 - Xalqaro yo'nalishlarda yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish filiali;
 - Maxalliy yo'nalishlarda yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish filiali;
 - Tezyurar yo'nalishlarda yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish filiali;
 - Marg'ilon, Qo'qon, Andijon, Namangan, Xonobod vokzallaridan iborat yo'lovchilar tashishni tashkil etish bo'yicha Farg'ona filiali;
 - Samarqand va Kattaqo'rg'on vokzallaridan iborat yo'lovchilar tashishni tashkil etish bo'yicha Samarqand filiali;
 - Uchquduq, Navoiy, Buxoro vokzallaridan iborat yo'lovchilar tashishni tashkil etish bo'yicha Buxoro filiali;
 - Nukus, Xo'jayli, Qo'ng'iro't, To'rtko'l, Ellikqal'a va Miskin vokzallaridan iborat yo'lovchilar tashishni tashkil etish bo'yicha Orolbuyi filiali;
 - Qarshi, Dehqonobod, Toshguzar vokzallaridan iborat yo'lovchilar tashishni tashkil etish bo'yicha Qashqadaryo filiali;
 - Termiz, Boysun, Qumqo'rg'on, Darband vokzallaridan iborat yo'lovchilar tashishni tashkil etish bo'yicha Surxondaryo filiali;
 - Urganch, Shovot, Xiva, Xazorasp vokzallaridan iborat yo'lovchilar tashishni tashkil etish bo'yicha Xorazm filiali;
 - Yuqori tezlikda harakatlanish filiali;
 - Binolar, inshootlar va jihozlarni kapital ta'mirlash direksiyasi.

«O'ztemiryo'lyo'lovchi» AJ ish-faoliyatini belgilaydigan asosiy hajm ko'rsatkichlari yo'lovchilar aylanmasi, tashilgan va jo'natilgan yo'lovchilar soni hisoblanadi. Yo'lovchilarni tashish sifati har bir vagonga to'g'ri keladigan vagon o'rtacha bandligi va yo'lovchining o'rtacha masofasi kabi ko'rsatkichlar bilan belgilanadi.

2021 yil davomida «O'ztemiryo'lyo'lovchi» AJ ning asosiy ko'rsatkichi - **yo'lovchi aylanmasi 3 130,2 mln.yo'lovchi.km** ni tashkil etdi, bu o'tgan yilga nisbatan **1 335,2 mln. yo'lovchi.km ga yoki 74,4% ga ko'p**. Yo'lovchilar aylanmasining ushbu o'zgarishi quyidagilardan tashkil topdi:

Yo'lovchilar aylanmasining ko'payishi:

-mahalliy yo'nalishda yo'lovchi tashish hajmining **2105,9 ming yo'lovchiga ko'payishi hisobiga 1351,2 mln. yo'lovchi-km** miqdorida yo'lovchilar aylanmasi oshdi;

- mahalliy yo'nalishda o'rtacha masofaning **20,8 km ga ko'payishi hisobiga 85,8 mln. yo'lovchi-km** miqdorida yo'lovchilar aylanmasi oshdi;

- xalqaro yo'nalishda o'rtacha masofaning **313,9 km ga ko'payishi hisobiga 6,1 mln. yo'lovchi-km** miqdorida yo'lovchilar aylanmasi oshdi;

- shahar atrofi yo'nalishda o'rtacha masofaning **13,0 km ga ko'payishi hisobiga 49,7 mln. yo'lovchi-km** miqdorida yo'lovchilar aylanmasi oshdi.

Yo'lovchilar aylanmasining yo'qotilishi:

-xalqaro yo'nalishda yo'lovchi tashish hajmining **195,9 ming yo'lovchiga kamayishi hisobiga 138,7 mln. yo'lovchi-km** miqdorida yo'lovchilar aylanmasi yo'qotildi;

-shahar atrofi yo'nalishida yo'lovchi tashish hajmining **219,3 ming yo'lovchiga** kamayishi hisobiga **18,8 mln. yo'lovchi-km** miqdorida yo'lovchilar aylanmasi yo'qotildi.

2021-yil davomida **tashilgan yo'lovchilar soni 7 968,2 ming yo'lovchini** tashkil qildi, bu 2020-yilda tashilganidan **1690,7 ming yo'lovchiga** yoki **26,9 foizga** ko'p. Tashilgan yo'lovchilar sonining ushbu o'zgarishi sabablari:

-mahalliy yo'nalishda xarakatlangan poezdlar sonining **1935 taga** va poezdlardagi vagonlar sonining **0,3 taga** ortgani uchun mahalliy yo'nalishda tashilgan yo'lovchilar soni **2105,9 ming yo'lovchiga** ko'paygan;

-shaxar atrofidagi yo'nalishlarida **219,3 ming yo'lovchi** va xalqaro yo'nalishda **195,9 ming yo'lovchi** kam tashilgan.

O'rtacha yo'lovchilarni tashish masofasi 393 km ni tashkil etdi, bu xalqaro, mahalliy va shahar atrofi yo'nalishlarda yo'lovchilar tashish o'rtacha masofasining oshishi hisobiga 2020 yil hisobotiga qaraganda **106,9 km.ga** ko'pdir.

2021-yil davomida vagonning **o'rtacha bandligi** har bir vagonga **30,2 yo'lovchidan** to'g'ri keldi, bu 2020-yil hisobotidan **2,1 yo'lovchiga** ko'p.

Ovoz berildi:

"Rozilik"- 100 757 277 ovoz

"Qarshi"- 0 ovoz

"Betaraf"- 0 ovoz

QAROR QILDILAR: Jamiyatning 2021-yil moliyaviy-xo'jalik faoliyati yakunlari va biznes-rejaning bajarilishi to'g'risidagi hisoboti "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ bosh direktori xulosasi ma'lumot uchun qabul qilinsin. Jamiyat bosh direktori J.T.Nurmuxamedov qat'iy choralar ko'rsin:

- Yo'lovchi tashish hajmi ko'rsatkichlarini bajarish va yo'lovchilarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish;

- Debitorlik qarzlarni to'lash va jamiyatning kreditorlik qarzlarini kamaytirish, jamiyat tarkibiy bo'linmalarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatining har chorakda tashkil etishni ta'minlasin.

Kun tartibidagi uchinchi masala bo'yicha jamiyat moliya bo'limi boshlig'i Sh.X.Abdurazzoqov so'zga chiqdi:

Jamiyatning moliyaviy faoliyati tahlili asosida quyidagi ma'lumotlarni taqdim etmoqchiman:

Asosiy vositalarning dastlabki qiymati 2021-yil yakunida 1.976.900.505 ming so'mni tashkil etdi. Asosiy vositlar bo'yicha hisoblangan eskirish (amortizatsiya) qiymati esa 741.734.497 ming so'mdan iborat. Buning natijasida asosiy vositalarning 2021-yil yakuniga qoldiq qiymati 1.235.166.008 ming so'mni tashkil etdi. Asosiy vositalar tahlili "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJning umumiy asosiy vositalar fondi 37,5%ga eskirganligini ko'rsatdi. Shu bilan birga hisobot davrida umumiy qiymati 10.367.676 ming so'mlik kir yuvish majmuasi o'rnatildi va foydalanishga topshirildi, bu esa o'z navbatida tashqi kir yuvish xizmat ko'rsatuvchilar tomonidan amalga oshirilayotgan qariyb 23.347.935 ming so'mlik yillik harajatlarni qisqartirish imkoniyatini yaratdi.

2021-yil yakuniga ko'ra joriy aktivlar qiymati 56.594.541 ming so'mni tashkil etib, shulardan tovar-moddiy zaxiralar ulushi 16.874.903 ming so'mga

teng, bu joriy aktivlar umumiy summasining 29,8%ni tashkil qiladi. Shuningdek 2021-yil yakunida jamiyatning debitor qarzdorligi 32.238.378 ming so'mni tashkil etdi, bu esa o'z navbatida joriy aktivlar umumiy summasining 56,9% ga teng.

"O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ pul mablag'lari hisobot davri yakuniga ko'ra 4.230.617 ming so'mni tashkil etdi. Bu asosan jamiyatning asosiy hisob raqamiga va boshqa hisob raqamlariga kelib tushgan pullardan iborat.

2021-yil oxiriga xususiy mablag'lar manbalari 707.351.471 ming so'mni tashkil etdi, o'z navbatida hisobot yili boshiga nisbatan rezerv kapitali 3.957.114 ming so'mga kamayganligini kuzatishimiz mumkin. Bunga asosiy sabab 37 ta yo'lovchi vagonlarni hisobdan chiqarish natijasida ularning rezerv kapitalidagi qayta baholash qoldiq ulushining kamayishi hisoblanadi.

2021-yil yakunida jamiyatning kreditorlik qarzdorligi 466.062.362 ming so'mni tashkil etgan. Kreditorlik qarzdorligi tarkibidagi asosiy qismi xo'jalik jamiyatlari bo'yicha qarzdorlik hissasiga to'g'ri kelib 405.367.146 ming so'mga teng.

Aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy natijalar tahliliga e'tibor beradigan bo'lsak 2021-yildagi tovar, ish va xizmatlarni sotuvidan tushgan sof tushum qiymati 482.196.873 ming so'mni tashkil etgan. Sotilgan maxsulot (tovar, ish va xizmat)larning jami tannarxi 366.751.898 ming so'mga teng, davr xarajatlari esa 96.751.387 ming so'mni tashkil etdi. Davr xarajatlarining asosiy qismini ya'ni 65.142.117 ming so'mi yoki 67,3% ni boshqa operatsiya xarajatlari tashkil etadi. Yil davomida favqulodda foyda va zararlar bo'lmadi.

Budjetga to'lovlar tahlili natijalari shuni ko'rsatdiki, 2021-yilda budjet bilan hisob-kitob bo'yicha 53.319.156 ming so'm to'lanishi lozim edi, shundan 49.090.027 ming so'mi to'landi. Soliqlar tarkibiy tahlili bo'yicha to'langan soliqlarning asosiy qismini ijtimoiy soliq, 17.039.102 ming so'mdan iborat, shuningdek mol-mulk solig'i 9.222.157 ming so'mni va budjetdan tashkari pensiya jamg'armasiga majburiy to'lovlar 174.408 ming so'mni tashkil etadi.

Ovoz berildi:

"Rozilik"- 100 757 277 ovoz

"Qarshi"- 0 ovoz

"Betaraf"- 0 ovoz

QAROR QILDILAR: Jamiyatning 2021-yil yakunlari bo'yicha yillik buxgalteriya balansi tasdiqlansin.

Kun tartibidagi to'rtinchi masala bo'yicha "Nazorat Audit" MChJ auditorlik korxonasining bosh direktori B.N.Nazarov so'zga chiqdi:

"Nazorat Audit" MChJ auditorlik firmasi tomonidan o'tkazilgan audit xulosasini e'lon qildi. Xulosa qilib aytganda, moliyaviy hisobotlar "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ 2021-yil 31-dekabr holatiga o'zining moliyaviy holatini, moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalarini barcha muhim jihatlarida ishonchli aks ettiradi va buxgalteriya hisobi to'g'risidagi hujjatlari qonun talablariga rioya qilgan holda yuritilgan.

Ovoz berildi:

"Rozilik"- 100 757 277 ovoz

"Qarshi"- 0 ovoz

"Betaraf"- 0 ovoz

QAROR QILDILAR: Jamiyatning 2021-yil yakunlari bo'yicha moliyaviy-iqtisodiy faoliyatini tashqi audit xizmati tomonidan o'tkazilgan auditorlik tekshiruvi natijasi bo'yicha bergan hulosasi tasdiqlansin.

Kun tartibidagi beshinchi masala bo'yicha jamiyat ichki audit xizmati boshlig'i T.B.Narkuziyev so'zga chiqdi:

2021-yil yakuni bo'yicha jamiyatning Kuzatuv kengashiga taqdim etilgan ushbu hisoboti ichki nazorat tizimlarining holatini tahlil qilish va baholash natijasidir. Tekshiruv davomida "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ moliyaviy natijasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan muhim faktlar aniqlanmadi. Korxonani audit qilish jarayonida asosiy hujjatlar, balans (1-shakl), moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (2-shakl), sertifikatlar, hisob-kitoblar, analitik ma'lumotlar tekshirildi.

Foyda va zararni tekshirishda moliyaviy faoliyatdan boshqa daromadlar, daromadlar va xarajatlarni hisobga olish, daromad va zararlarning analitik hisobini tashkil etish, jamiyatning zararlarini hisobdan chiqarishning qonuniyligi o'rganildi.

Moliyaviy-xo'jalik holati tahlil qilinganda, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlar ijobiy ekanligi, "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganligi, moliyaviy tavakkalchilikka yo'l qo'yilmaganligi, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiqligi aniqlandi va Ijro etuvchi organ faoliyatiga berilgan umumiy baho qoniqarli deb topildi.

Ovoz berildi:

"Rozilik"- 100 757 277 ovoz

"Qarshi"- 0 ovoz

"Betaraf"- 0 ovoz

QAROR QILDILAR: "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ ichki audit xizmatining 2021-yil yakunlari bo'yicha hisoboti tasdiqlansin.

Kun tartibidagi oltinchi masala bo'yicha taftish komissiyasining raisi X.Z.Barkashbayev so'zga chiqdi:

Moliyaviy-iqtisodiy holat tahlil qilinganda "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganligi hamda moliyaviy xavf yo'qligi aniqlandi.

Ko'rib chiqish va tahlil qilish jarayonida "O'ztemiryo'lyo'lovchi" aksiyadorlik jamiyatining 2021-yil uchun taqdim etilgan moliyaviy hisoboti komissiya tomonidan jamiyat faoliyatini barqaror deb baholandi.

Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilgan deb topildi, komissiyaning xulosasi ijobiy.

Ovoz berildi:

"Rozilik"- 100 757 277 ovoz

"Qarshi"- 0 ovoz

"Betaraf"- 0 ovoz

QAROR QILDILAR: "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ Taftish komissiyasining 2021-yil yakunlari bo'yicha xulosasi tasdiqlansin.

Kun tartibidagi yettinchi masala bo'yicha jamiyat Kuzatuv kengashi a'zosi U.M.Irismetova ma'ruza qildi:

Jamiyatning ustav kapitali 51 263,978 million so'm bo'lib, shundan 98,27 foiz aksiyalari "O'zbekiston temir yo'llari" AJ ulushiga, qolgan 1,73 foizi esa minoritar aksiyadorlar – mehnat jamoasi ulushiga to'g'ri keladi.

"O'ZTEMIRYO'LYO'LOVCHI" AJ Kuzatuv kengashi 9 nafar a'zodan iborat.

"O'ZTEMIRYO'LYO'LOVCHI" aksiyadorlik jamiyati Kuzatuv kengashi tomonidan 2021-yil hisobot yilida jamiyatni korporativ boshqarishning asosiy vazifalarini amalga oshirish yuzasidan tegishli ishlar amalga oshirildi.

Kuzatuv kengashining 29 ta yig'ilishi va aksiyadorlarning bir yillik umumiy yig'ilishi o'tkazildi.

Har chorakda biznes-rejaning bajarilishi yuzasidan aksiyadorlik jamiyati bosh direktorining hisobotlari tinglanib, ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmini oshirish, mehnat unumdorligini, ishlab chiqarish rentabelligini oshirish, tannarxni kamaytirish, korxonalarni qayta qurish bo'yicha Ijroiya organiga tegishli tavsiyalar berildi.

Jamiyatda yo'l hujjatlari bo'yicha tarif siyosati va jamiyat xodimlarining texnologik intizomini takomillashtirish, ayniqsa yo'lovchi poyezdlarining poyezd xodimlari tomonidan bagaj va yuk bagajini tashish qoidalarini buzish masalalarini ko'rib chiqishga alohida e'tibor qaratildi.

"O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJning asosiy ko'rsatkichlariga O'zbekiston Respublikasida COVID-19 koronavirus pandemiyasi jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Pandemiya sababli 2020-yil 16-mart barcha davlatlararo, 24 martdan esa barcha shtat ichidagi yo'lovchi poyezdlari qatnovi bekor qilindi. 2020-yil 15-maydan boshlab vagondagi yo'lovchilar va aholining 50 foizidan ko'p bo'lmagan ijtimoiy masofani hisobga olgan holda ayrim tezyurar va tezyurar poyezdlarning harakatlanishiga ruxsat berildi. Mamlakatdagi epidemiologik vaziyat munosabati bilan 2020-yil 13-iyuldan 15-avgustgacha barcha ichki poyezdlarni yana bekor qilishga majbur bo'ldilar. 2022-yil may oyi boshiga qadar davlatlararo poyezdlar harakati tiklanmadi.

Shunday qilib, 2021-yil hisobot yili uchun kompaniya ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatni tavsiflovchi quyidagi asosiy ko'rsatkichlar bilan chiqdi:

Yo'lovchilar aylanmasi – rejaga nisbatan 96,5 foizga bajarildi yoki **3 130,2 million yo'lovchi kilometrni tashkil etdi;**

Tashilgan yo'lovchilar soni - rejaga nisbatan 64,6 foizni tashkil etdi yoki **7968,2 ming yo'lovchi tashildi;**

O'rtacha masofa - 393 km ni tashkil etdi, bu o'tgan yilgi hisobotga nisbatan 106,9 km ga ko'p, rejaga nisbatan 149,3 foizga bajarilgan.

Har bir vagonning o'rtacha bandligi 30,2 kishini tashkil etdi, bu 2020-yil hisobotidan 2,0 yo'lovchiga ko'p;

"O'ZTEMIRYO'LYO'LOVCHI" AJning 2021-yildagi daromadi **501 615,6 million so'mni** tashkil etdi, bu 2020-yil hisobotidan **49,6 foizga** yoki **166 256,8 mln.so'mga** ko'p va rejadan **3,5 foizga** yoki **17 112,6 mln.so'mga** ko'p.

"O'ZTEMIRYO'LYO'LOVCHI" AJning 2021-yildagi xarajatlari **463 503,3 million so'mni** tashkil etdi, bu esa 2020-yil hisobotidan **35,0 foizga** yoki

120 277,2 mln.so'mga ko'p va rejadani 1,7 foizga yoki 8 128,4 mln.so'mga ko'p.

Ish haqi fondi - harajatlarning oshishi **53 485,1 mln.so'm** yoki **50,9 foizni** tashkil etdi, lekin biznes rejaga nisbatan **2,7 foizga** xarajatlar tejalgan.

Kuzatuv kengashining 2022-yil 6-iyun kuni bo'lib o'tgan yig'ilishida 2021-yil yakunlari bo'yicha aksiyadorlik jamiyatining yillik umumiy yig'ilishini tayyorlash masalalari ko'rib chiqildi, jamiyatning 2022-yilga mo'ljallangan faoliyatining ustuvor yo'nalishlari belgilab olindi.

Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi tasdiqlash uchun quyidagi masalalar kiritildi:

Jamiyat bosh direktorining 2021-yildagi moliyaviy-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hisoboti;

Yangi nomzodlar - Ijroiya organi, kuzatuv kengashi, taftish komissiyasi va sanoq komissiyasi a'zolari;

"Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonun talablariga muvofiq boshqa tashkiliy masalalar.

Yuqoridagi Qonun talablaridan kelib chiqib, Kuzatuv kengashining 2021-yil 30-dekabrda yig'ilishida aksiyadorlik jamiyatining 2022-yilga mo'ljallangan biznes-rejasi, Kuzatuv kengashining 2022-yilga mo'ljallangan ish rejasi ham tasdiqlandi.

Aksiyadorlik jamiyati faoliyatida mulkni asrab-avaylash va undan samarali foydalanish, yaroqlilik muddati o'tgan eskirgan va eskirgan uskunalarni yangilash masalasi dolzarbligicha qolmoqda.

Yillik hisobotlarga ko'ra, ommaviy axborot vositalarida majburiy ma'lumotlar e'lon qilinadi: yillik balans, aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi e'lon, affillangan shaxslar ro'yxati va boshqa muhim faktlar.

2022-yil 6-iyun kuni bo'lib o'tgan Kuzatuv kengashi yig'ilishida aksiyadorlik jamiyatining 2021-yildagi faoliyati yakunlari sarhisob qilindi hamda 2021-yil yakunlari bo'yicha aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish masalasi ko'rib chiqildi.

Ovoz berildi:

"Rozilik"- 100 757 277 ovoz

"Qarshi"- 0 ovoz

"Betaraf"- 0 ovoz

QAROR QILDILAR: – 2021-yilda kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi kuzatuv kengashi raisining hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin;

– Kuzatuv kengashining 2021-yil yakunlari bo'yicha hisobotini tasdiqlansin.

Kun tartibidagi sakkizinchi masala bo'yicha jamiyatning aksiyadorlar bilan korporativ munosabatlar bo'yicha mutaxassisi A.M.Mirsoatov ma'ruza qildi:

"O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati boshqaruv raisi vazifasini bajaruvchisi X.N.Xasilovning 2022-yil 18-maydagi 01/1631-22-sonli xatiga asosan quyidagi nomzodlar jamiyat Kuzatuv kengashi va taftish komissiyasi tarkibiga tavsiya etilgan:

a) Kuzatuv kengashiga nomzodlar:

Kuzatuv kengashi		
No	F.I.Sh.	Lavozim
1	Radjapov Mansur Kuchkarovich	“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ Boshqaruv raisining o‘rinbosari v.b.
2	Axmedov Ergashboy Botirovich	“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ Vagon xo‘jaligi boshqarmasi boshlig‘i.
3	Asrorov Sanjar Sattorovich	“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ Tashishni tashkil etish boshqarmasi boshlig‘i.
4	Atajanov Kamal Atavayevich	“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ Aksiyadorlar bilan korporativ munosabatlar boshqarmasi boshlig‘i.
5	Sharifbayev Axadjon Olimovich	“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ Strategik rivojlanish boshqarmasi boshlig‘i.
6	Abduraxmonov Kamoliddin Botirovich	“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ Moliya boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari.
7	Saidova Feruza Anvarovna	“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ Personalni boshqarish va kadrlarni tayyorlash boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari.
8	Maxmudov Farxod Baxodirovich	“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ Iqtisodiy tahlil va prognozlash boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari.
9	Abduhakimova Nozima Rovshanovna	“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ Aksiyadorlar bilan korporativ munosabatlar boshqarmasi yetakchi mutaxassisi.

b) Taftish komissiyasiga nomzodlar:

Taftish komissiyasi		
No	F.I.Sh.	Lavozim
1	Zulfiqorov Farxod Yuldashxodjayevich	“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ Moliya boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i.
2	Xakimova Nozima Erkin qizi	“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ ichki audit xizmati auditor yordamchisi.
3	Xolboyev Elyor Jolg‘osh o‘g‘li	“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ Aksiyadorlar bilan korporativ munosabatlar boshqarmasi mutaxassisi.

Bundan tashqari, sanoq komissiyasiga quyidagi nomzodlar tavsiya etiladi:

Sanoq komissiyasi		
No	F.I.Sh.	Lavozim
1	Masharipov Fozilbek Shuxrat o‘g‘li	“O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” AJ Kotibiyat bo‘limi boshlig‘i.
2	Tashpulatov Nurbolat Yerbolat o‘g‘li	“O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” AJ Murojaatlar bilan ishlash sektori boshlig‘i.

3	Mirsoatov Abdulloh Mirvohid o'g'li	"O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ Aksiyadorlar bilan korporativ munosabatlar bo'yicha mutaxassis.
---	---------------------------------------	--

Ovoz berildi:

"Rozilik" - 100 757 277 ovoz

"Qarshi" - 0 ovoz

"Betaraf" - 0 ovoz

QAROR QILDILAR: "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJning Kuzatuv kengashi, taftish va sanoq komissiyalari tarkibi yuqoridagi ro'yxatlar bo'yicha tasdiqlansin; Kuzatuv kengashi tarkibi quyidagi to'qqiz a'zodan tasdiqlansin: M.K.Radjabov - Kuzatuv kengashi raisi, E.B.Axmedov, S.S.Asrorov, K.A.Atajanov, A.O.Sharifbayev, K.B.Abdurahmonov, F.A.Saidova, F.B.Maxmudov, N.R.Abduhakimova - Kuzatuv kengashi a'zolari.

Taftish komissiyasi quyidagi tarkibda uch a'zodan tasdiqlansin: F.Y.Zulfiqorov - Taftish komissiyasi raisi, N.E.Xakimova va E.J.Xolboyev - Taftish komissiyasi a'zolari.

Sanoq komissiyasi quyidagi tarkibda uch a'zodan tasdiqlansin: A.M.Mirsoatov - Sanoq komissiyasi raisi, F.SH.Masharipov va N.Y.Tashpulatov - Sanoq komissiyasi a'zolari.

So'z sanoq komissiyasi raisi A.M.Mirsoatovga berildi - Aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun 2022-yil 6-iyun sanasida aksiyadorlar reestri tuzildi. Ustav fondining 2022-yil 24-iyun aksiyalarning umumiy soni 102.527.956 aksiyani tashkil etadi.

Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida 15 ta aksiyador ishtirok etmoqda. Ulardan "O'zbekiston temir yo'llari" AJning bir vakili va 14 ta jismoniy aksiyadorlar ishtirok etmoqda. Jami ovozlar soni 100 757 277 aksiya, yoki ustav fondining 98.27% kvorumga ega.

Kun tartibidagi to'qqizinchi masala bo'yicha jamiyat bosh direktori J.T.Nurmuxamedov ma'ruza qildi:

"O'ztemiryo'lyo'lovchi" aksiyadorlik jamiyati faoliyati samaradorligini oshirish, faoliyatini optimallashtirish maqsadida tashkiliy tuzilmasidagi shtat birliklariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi masala ko'rib chiqilganligi haqida yig'ilganlarga ma'lum qildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJning yangi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlashni so'rayman.

Ovoz berildi:

"Rozilik" - 100 757 277 ovoz

"Qarshi" - 0 ovoz

"Betaraf" - 0 ovoz

QAROR QILDILAR: "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJning yangi tashkiliy tuzilmasi tasdiqlansin.

Kun tartibidagi o'ninchi masala bo'yicha jamiyat Kuzatuv kengashi raisi M.K.Radjabov ma'ruza qildi:

Jamiyat bosh direktori lavozimida Nurmuxamedov Jahongir To'laniddinovich bilan tuzilgan mehnat shartnomasini keyingi yilgi aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishigacha uzaytirishni taklif qildi.

Ovoz berildi:

“Rozilik” - 100 757 277 ovoz

“Qarshi” - 0 ovoz

“Betaraf” - 0 ovoz

QAROR QILDILAR: “O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” AJ bosh direktori lavozimidagi Nurmuxamedov Jahongir To‘laniddinovich bilan tuzilgan mehnat shartnomasini keyingi yillik umumiy yig‘ilishigacha uzaytirish tasdiqlansin.

Kun tartibidagi o‘n birinchi masala bo‘yicha jamiyat moliya bo‘limi boshlig‘i Sh.X.Abdurazzoqov so‘zga chiqdi hamda affillangan shaxslar bilan bo‘lajak bitimlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni Kuzatuv kengashiga tasdiqlash uchun taqdim etdi:

2014-yil 6-maydagi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuning 85-moddasiga ko‘ra jamiyatlarning affillangan shaxslari ro‘yhati e‘tirof etilgan. Unga ko‘ra Quyidagilar jamiyatning affillangan shaxslari deb e‘tirof etiladi:

1) ushbu jamiyatning yigirma foiz va undan ortiq foiz aksiyalariga egalik qiluvchi yuridik shaxs;

2) ushbu jamiyatning yigirma foiz va undan ortiq foiz aksiyalariga yaqin qarindoshlari bilan birgalikda egalik qiluvchi jismoniy shaxs;

3) ushbu jamiyat kuzatuv kengashining a‘zosi, jamiyat direktorining yoxud jamiyat boshqaruvi a‘zosining vakolatlarini amalga oshirayotgan shaxs;

4) ushbu jamiyat qaysi yuridik shaxs ustav fondining (ustav kapitalining) yigirma foizi va undan ortiq foiziga egalik qilsa, o‘sha yuridik shaxs;

5) ushbu jamiyatning sho‘ba xo‘jalik jamiyati bo‘lgan yoki ushbu jamiyat qaysi jamiyatning sho‘ba xo‘jalik jamiyati bo‘lsa, o‘sha jamiyatning sho‘ba xo‘jalik jamiyati bo‘lgan yuridik shaxs;

6) ushbu jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) yigirma foizi va undan ortiq foiziga egalik qiluvchi ayni bir shaxs qaysi yuridik shaxs ustav fondining (ustav kapitalining) yigirma foizi va undan ortiq foiziga egalik qilsa, o‘sha yuridik shaxs;

7) ushbu jamiyat kuzatuv kengashining kamida uchdan bir qismini tashkil etuvchi ayni bir shaxslar va ularning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxs kuzatuv kengashining kamida uchdan bir qismini tashkil etsa, o‘sha yuridik shaxs;

8) ushbu jamiyatning direktori yoxud boshqaruv a‘zosi bo‘lgan ayni bir shaxs yoki uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxs ijroiya organining rahbari vazifasini amalga oshirayotgan bo‘lsa, o‘sha yuridik shaxs;

9) yaqin qarindoshlari bilan birgalikda ushbu jamiyat kuzatuv kengashining kamida uchdan bir qismini tashkil etuvchi shaxs qaysi yuridik shaxs rahbarining yoki ijroiya organi a‘zosining vazifasini amalga oshirayotgan bo‘lsa, o‘sha yuridik shaxs;

10) ushbu jamiyat direktorining yoki boshqaruv a‘zosining vakolatlarini amalga oshirayotgan shaxs yaqin qarindoshlari bilan birgalikda qaysi yuridik shaxs jamiyat kuzatuv kengashining kamida uchdan bir qismini tashkil etsa, o‘sha yuridik shaxs;

11) ushbu jamiyat bilan bitta xo‘jalik birlashmasiga kiruvchi yuridik shaxs.

Quyidagilar jamiyatning affillangan shaxsi bo'lgan aksiyador — jismoniy shaxsning affillangan shaxslari deb e'tirof etiladi:

1) ushbu jismoniy shaxs va (yoki) uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxs ustav fondining (ustav kapitalining) yigirma foizi va undan ortiq foiziga egalik qilsa, o'sha yuridik shaxs;

2) ushbu aksiyador yoki uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxs kuzatuv kengashining a'zosi bo'lsa, o'sha yuridik shaxs;

3) ushbu aksiyador yoki uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsda ijroiya organining a'zosi vakolatlarini amalga oshirayotgan bo'lsa, o'sha yuridik shaxs.

Jamiyat 2021 yilda xo'jalik faoliyati bilan bog'liq 329ta shartnomalarni temir yo'l tizim tashkilotlari bilan amalga oshirgan. Shu bilan birga ushbu tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomalar o'z navbatida 2021 yil 22-apreldagi 684-sonli "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga muvofiq elektron birja savdolari orqali amalga oshirilgan.

Ovoz berildi:

"Rozilik"- 100 757 277 ovoz

"Qarshi"- 0 ovoz

"Betaraf"- 0 ovoz

QAROR QILDILAR: "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJning joriy tadbirkorlik faoliyati davomida affillangan shaxslar bilan kelajakda tuzilishi mumkin bo'lgan bitimlarni tasdiqlansin.

Kun tartibidagi o'n ikkinchi masala bo'yicha jamiyat aksiyadorlari bilan korporativ munosabatlar bo'yicha maslahatchi G.P.Tursunov so'zga chiqdi:

"O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ aksiyadorlarining 2016-yil 30-iyunda bo'lib o'tgan yillik umumiy yig'ilishida "O'ztemiryo'lyo'lovchi" aksiyadorlik jamiyati tomonidan tavsiyalar bajarilishi to'g'risida qaror 2017-yil 1-yanvardan Korporativ boshqaruv kodeksiga asosan qabul qilindi.

"O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ "Silk Capital" MChJ bilan kompaniyaning 2021-yildagi faoliyati yakunlari bo'yicha korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash bo'yicha shartnoma tuzdi va "Silk Capital" MChJ tomonidan korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalariga ko'ra berilgan xulosaga ko'ra, "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ samaradorligi 520 ballni tashkil etib, "qoniqarli" deb topildi va foiz shkalasi bo'yicha yakuniy ball 43% ni tashkil qildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalarini tasdiqlashni taklif etaman.

Ovoz berildi:

"Rozilik"- 100 757 277 ovoz

"Qarshi"- 0 ovoz

"Betaraf"- 0 ovoz

QAROR QILDILAR:

- "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ korporativ boshqaruvi (faoliyati) samaradorligini oshirish bo'yicha 2022-yilga mo'ljallangan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish.

- "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJda korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalarini tasdiqlansin.

Kun tartibidagi o'n uchinchi masala yuzasidan jamiyat bosh direktori J.T.Nurmuxamedov ma'ruza qildi:

"O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ shuni ma'lum qiladiki, "O'zbekiston temir yo'llari" AJ boshqaruv raisi v.b. X.N.Xasilov tomonidan 2022-yil 7-mart kunidagi 35-sonli tasdiqlangan bayonnomaga asosan jamiyat balansida bo'lgan 30 dona yo'lovchi vagonlarini o'rnatilgan tartibda realizatsiya qilish bo'yicha "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJga topshiriqlar berilgan.

Jamiyat yo'lovchi vagonlar parkini soz holatda ushlab turish, ichki turizim rivojlanayotgan bir paytda aholining yo'lovchi vagonlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish hamda Jamiyatning malakali mutahassislarini saqlab qolish, ishchi-hodimlarini uzluksiz ish bilan ta'minlash choralari ko'rish zarurligi qayd etilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ balansida bo'lgan ta'mir talab 30 dona yo'lovchi vagonlarini o'rnatilgan tartibda auksion orqali sotishni taklif etaman.

Ovoz berildi:

"Ro'zilik"- 0 ovoz

"Qarshi"- 100 757 277 ovoz

"Betaraf"- 0 ovoz

QAROR QILDILAR: "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ sotuvga qo'yiladigan vagonlarini aniqlashi va baholatishi aksiyadorlar fikriga asosan ushbu masalani yanada mukammal o'rganib, navbatdagi umumiy yig'ilishda ko'rib chiqilsin.

"O'ZTEMIRYO'LYO'LOVCHI" AJ Aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi quyidagilarni qaror qildi:

1. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi reglamenti tasdiqlandi.

2. "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ bosh direktorining 2021-yil uchun jamiyat moliyaviy va xojalik faoliyati yakunlari natijalari va biznes-rejani amalga oshirish to'g'risidagi hisoboti tasdiqlandi.

3. Jamiyatning 2021-yil yakunlari bo'yicha yillik buxgalteriya balansi tasdiqlandi.

4. Jamiyatning 2021-yil yakunlari bo'yicha moliyaviy-iqtisodiy faoliyatini tashqi audit xizmati tomonidan o'tkazilgan auditorlik tekshiruvi natijasi bo'yicha bergan hulosasi tasdiqlandi.

5. "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ ichki audit xizmatining 2021-yil yakunlari bo'yicha hisoboti tasdiqlandi.

6. "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ taftish komissiyasining 2021-yil yakunlari bo'yicha hulosasi tasdiqlandi.

7. "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ Kuzatuv kengashining 2021-yil yakunlari bo'yicha hisoboti tasdiqlandi.

8. "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJning Kuzatuv kengashi, taftish va sanoq komissiyalari tarkibiga berilgan nomzodlar tasdiqlandi.

9. "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJning yangi tashkiliy tuzilmasi tasdiqlandi.

10. "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJning bosh direktori bilan tuzilgan mehnat shartnomasini aksiyadorlarning keyingi yillik umumiy yig'ilishigacha uzaytirish tasdiqlandi.

11. Jamiyatning affillangan shaxslari bilan, joriy xo'jalik faoliyati davomida aksiyadorlarning keyingi yillik umumiy yig'ilishigacha bo'lgan davrda tuzilishi mumkin bo'lgan bitimlar tasdiqlandi.

12. "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJda 2021-yil yakunlari bo'yicha korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalari hulosasi tasdiqlandi.

13 "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ balansida bo'lgan ta'mir talab 30 dona yo'lovchi vagonlarini o'rnatilgan tartibda auksionda sotish to'g'risidagi masalani yanada mukammal o'rganib, navbatdagi umumiy yig'ilishda ko'rib chiqish tasdiqlandi.

"O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi bayonnomasi ikki nusxada 2022-yil 8-iyul kunida tuzildi va imzolandi.

Yig'ilish raisi

M.K.Radjapov

Yig'ilish kotibi

A.M.Mirsoatov